

## GEOGRAFIYA FANINI O'QITISHDA INTERFAOL METODLARNING AHAMIYATI

*Xorazm viloyati Hazorasp tumani 12-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabining*

*Geografiya va iqtisod fani o'qituvchisi*

***Mirzayeva Xilola Rajabbayevna***

Annotatsiya: O'zbekistonning mustaqillikka erishishi munosabati bilan geografiya ta'limida ham muhim o'zgarishlar sodir bo'ldi. Maktab geografiyasining mazmuni va tuzilishida tarkibiy o'zgarishlar amalga oshirildi. Ayrim o'quv fanlari maktab dasturidan olib tashlandi, ayrimlarining mazmuni o'zgartirildi, ayrim fanlar yangidan yaratilib, o'quv tizimiga joriy qilindi. Ushbu maqolada geografiya fanining zamonaviy o'qitish metodikalari, fanning maqsad va vazifalari haqida qisqacha so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: Geografiya, xususiy didaktika, xususiy geografiya, geografik tafakkur, geografik ekskursiyalar.

### KIRISH

Geografiya ta'limi deganda o'quvchilarga tabiiy va iqtisodiy-ijtimoiy komplekslarning tuzilishi va asosiy qonuniyatlari haqida bilimlar beradigan geografiya fanlari tizimiga aytiladi. Geografiya ta'limi metodikasi esa maktablarda va kasb-xunar kollejlarda tabiiy geografiya, iqtisodiy geografiya va boshqa maxsus geografiya fanlarini o'qitish jarayonini o'rganadigan va pedagogika fanlari tizimiga kiradigan fandır. Geografiya ta'limi metodikasi umumiy didaktika va tarbiya nazariyasi bilan chambarchas bog'langan. Didaktika fani ta'lim berish va tarbiya jarayonini umumiy qonuniyatlarini, ta'lim mazmunini tadqiq qiladigan nazariy fandır. didaktika fani aniq o'quv fanlarini o'qitish metodikasi bilan shug'ullanmaydi. Ayni vaqtda har bir o'quv fani o'ziga xos xususiyatlarga ega. Ularning ayrimlarini maqsadi nazariy bilim va ko'nikmalarni shakllantirish (geografiya, kimyo), ayrimlari faqat ko'nikmalarni (chet tillar), boshqalari esa borliqqa estetik munosabatda bo'lishini shakllantiradi (tasviriy

san'at). Shuning uchun alohida fanlarni o'qitish metodikasi bilan xususiy didaktika fanlari shug'ullanadi. Mazkur fanlar qatoriga

«Geografiya o'qitish metodikasi» fani ham kiradi. Geografiya o'qitish metodikasining nazariy va amaliy jihatlari mavjud. Geografiya o'qitish metodikasi fani quyidagi nazariy va amaliy metodologik muammolarni tadqiq qiladi:

a) Geografiya o'qitish metodikasining predmeti, tadqiqot usullari, rivojlanish tarixi;

b) Geografiya o'qitish metodikasining maqsad va vazifalarini umumiy va alohida predmetlar bo'yicha aniqlash;

v) ta'lim va tarbiyaning birligini amalga oshirish;

Geografiya o'qitish metodikasi ikkita katta qismdan iborat: umumiy va hususiy geografiya o'qitish metodikasi. Umumiy geografiya o'qitish metodikasi – bu geografiyaning didaktikasi hisoblanadi. U geografiya o'qitish jarayonini o'ziga xos xususiyatini o'rganadi. Geografiya o'qitishning umumiy metodikasi nazariy va metodik masalalarni ishlab chiqadi, yani predmetni o'zini tadqiqot usullarini o'rganadi, bunda asosiy e'tibor o'quv-tarbiyaviy maqsadlarni ishlab chiqishga qaratiladi.

Aniqlangan o'quv-tarbiyaviy maqsadlar asosida geografiya ta'limining mazmuni ishlab chiqiladi. Umumiy metodika ikki qismga bo'linadi:

-tabiiy geografiyani o'qitish metodikasi;

--iqtisodiy va ijtimoiy geografiyani o'qitish metodikasi;

Geografiya o'qitishning xususiy metodikasi – alohida o'quv predmetlarini maqsad va vazifalarini ishlab chiqadi va umumnazariy xolatlarni aniq o'quv predmetlarini o'qitish jarayonida qo'llash masalalarini o'rganadi. Geografiya o'qitish metodikasi geografiya fan asoslari bilan bog'liq bo'lgan o'quv, jarayonlar, tamoyil (prinsip)lar va qonuniyatlar to'g'risidagi fandır. Mazkur tamoyil va qonuniyatlarni bilish o'qituvchiga maktab geografiya kursi bilan bog'liq o'quv-tarbiyaviy jarayonlarni zamon talablariga mos holda tashkil etish va boshqarish imkonini beradi.

Geografiya o'qitish metodikasining obyektı – mazkur o'quv fani bilan aloqador bo'lgan ta'limtarbiyaviy jarayon.

Geografiya o'qitish metodikasining predmeti – geografik ta'limning maqsadi, mazmuni, o'qitish usullari, shakllari, o'quvchilarning tarbiyasi va rivojlanishidir. Geografiya o'qitish metodikasining maqsadi – geografiya o'quv fanlarining mazmuni, uning o'qitish shakllari, metodlari, vositalarini o'zaro bog'liq holda joriy etish.

Geografiya o'qitish metodikasining vazifasi – geografiya o'quv fanlarining mazmuni, uning o'qitish shakllari, metodlari, vositalarini o'zaro bog'liq holda joriy etish. Shuningdek geografiya o'qitish metodikasi quyidagilarni ham o'z oldiga vazifa qilib qo'yadi: Bo'lajak o'qituvchilarga geografik o'quv fanlar bo'yicha chuqur va atroflicha bilim berish; Maktab geografiyasining ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantirish imkoniyatlarini ochib berish; Maktab geografiyasining mazmunini zamon talablariga mos ravishda yanada takomillashtirish.

Maktab geografiyasi mazmuni va tuzilishida zamonaviy fan yutuqlarini aks ettirish;

Geografiya darslarini tuzilishi, o'lchamlari va turlarini yanada takomillashtirish;

Geografiya o'qitishni yangi pedagogik va va axborot texnologiyalarini ishlab chiqish va amalda qo'llash;

Geografik ekskursiyalar, tadqiqotlar o'tkazish texnologiyasini yanada takomillashtirish;

O'quvchilarda amaliy geografik ko'nikmalarni shakllantirish texnologiyasini takomillashtirish;

O'quvchilarning har tomonlama rivojlangan shaxs sifatida kamol topishiga ko'mak beruvchi o'quv fanlar mazmunini, o'qitish shakllari, vositalari va metodlarini ishlab chiqishdan iborat. Geografiya o'qitish metodikasi talabalar va o'qituvchilarni o'qitish nazariyasi va tarbiyasi bilan qurollantiradi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, geografik tafakkurni “inson-tabiati-jamiyat” tipidagi muammolarni ularning hududiy yoki fazoviy jihatdan hal etishning muayyan usuli sifatida shakllantirish geografik ta'limning strategik maqsadi sifatida qaralishi kerak. Geografik tafakkur shu ma'noda tizimli, murakkab, fazoviy, ilmiy, dialektik, umumlashgan tafakkurdir. Bu bolalar o'sib ulg'aygan sari rivojlanadi va atrofdagi

dunyo haqida tajriba orttiradi. Madaniy-tarixiy yondashuv nuqtai nazaridan geografik tafakkur eng oliy psixik funksiyalaridan biri. Geografiya o`qitishning maqsadlari faollik xarakteriga ega, ya`ni ularga faqat o`quvchilarning o`zlari o`quv-bilish faoliyati jarayonida erishish mumkin. Ta`lim maqsadlarini belgilash dasturlarni ishlab chiqish va darsliklar yaratish bilan, shuningdek, geografiyani zamonaviy sharoitlarda o`qitish jarayonini tashkil etish bilan bevosita bog`liq.

References:

1. Karimov. Yuksak malakali mutaxassislar – taraqqiyot omili. -Toshkent: O`zbekiston, 1995-yil.
2. Barkamol avlod – O`zbekiston taraqqiyoti poydevori. – Toshkent: Sharq, 1997-yil.
3. 3.X. Vahobov, F. Saydamatov, N. Eshpo`latov. Geografiya ta`limida qo`llaniladigan pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqish. Xalq ta`limi. 2007-yil. N\_1
4. M. Jo`raboyev. Geografiya o`qitishda predmetlararo aloqa. – Toshkent: O`qituvchi, 1983-yil.
5. R. Qurbonniyozov. “O`zbekiston geografiyasi” qiziqarli savol topshiriqlar. – Toshkent: O`qituvchi, 1997-yil.
6. H. Vahobov, N. R. Alimqulov, N. B. Sultanova. Geografiya o`qitish metodikasi. Darslik. Toshkent, 2020-yil.